V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

HAYDAROV FARHOD HALIMJONOVICH

PANJARALI SISTEMALARDA LIMIT VA GRADIYENT GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01-Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

UDK: 517.98

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

HAYDAROV FARHOD HALIMJONOVICH

PANJARALI SISTEMALARDA LIMIT VA GRADIYENT GIBBS O‘LCHOVLARI

01.01.01-Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/FM254 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathins.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Rozikov Utkir Abdulloyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar: **G‘anixo‘jayev Nosir Nabiyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rahimov Abdug‘ofur Abdumajidovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Muhammedov Farrux Maksudovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil « 25 » iyul soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz. Website: www.mathinst.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 11 » iyul kuni tarqatildi.
(2024 yil « 11 » iyuldagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. A’zamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais o‘rinbosari,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar statistik fizika va mexanikada uchraydigan spin sistemalarga bag‘ishlangan bo‘lib, ular ichida Gibbs o‘lchovlar nazariyasiga oid ilmiy ishlar salmoqli ulushga ega. Panjarali sistemalarda berilgan Gibbs o‘lchovlari statistik mexanikada alohida ahamiyatga ega bo‘lishi bilan bir qatorda boshqa turli ilmiy yo‘nalishlarda ham keng tatbiqlari mavjud. Gibbs o‘lchovlari ko‘p ta’sirli zarrachalarga bog‘liq sistemalarning muvozanat xossalarini tushuntirishda asosiy tayanch hisoblanadi. Sistemadagi holatlarning taqsimotlarini tavsiflashda Gibbs o‘lchovlari fazaviy o‘tishlarni aniqlash, termodinamik xossalarini tekshirish kabi muhim masalalarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, Gibbs o‘lchovi potensial energiya va entropiya birgalikda qaralganda, tashqi ta’sir ostida kimyoviy reaksiyalarning sodir bo‘lish yoki bo‘lmasligini ifodalashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda jahonda panjarali sistemalarda aniqlangan Gamiltonian uchun gradiyent Gibbs o‘lchovlarini tavsiflash masalasi keng miqyosda o‘rganilmoqda. Gradiyent konfiguratsiyalar daraxtning uchlarida emas balki qirralarida aniqlanganligi sababli limit Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘lmay qolgan hollarda ham gradiyent Gibbs o‘lchovlari mavjud bo‘ladigan spin sistemalarga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bu esa statistik mexanikada gradiyent Gibbs o‘lchovlarining o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu o‘lchovlar turli energiya manbalariga asoslangan sistemalarda gradiyentlarni hisoblashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, Gibbs o‘lchovlari chegaraviy qonunlar yordamida aniqlanishi hisobga olinib, dunyo olimlari tomonidan bir bog‘lamli komponentadan iborat graflarda berilgan chegaraviy qonunga oid ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan. Boshqa tomondan, agar Gibbs o‘lchovlarini daraxtda qaralsa, u holda chegaraviy qonunni bir nechta bog‘lamli kompotentalarga ega graflarda qarashga to‘g‘ri keladi. Shu sababli, hozirda daraxtlarda Gibbs o‘lchovlarini tadqiq etish masalasi jahon olimlari tomonidan katta qiziqishlarga sabab bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan statistik fizika va mexanikaning dolzarb yo‘nalishlariga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, panjarali sistemalarda berilgan Gamiltonian uchun limit va gradiyent Gibbs o‘lchovlari nazariyasini rivojlantirishda, o‘lchovlar nazariya va nochiziqli analizning amaliy masalalari yordamida sezilarli yutuqlarga erishildi. Keli daraxtida berilgan modellar uchun Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tadqiq etishda salmoqli natijalarga erishildi. Matematik fizika, nochiziqli analiz, o‘lchovlar nazariyasi va stoxastik jarayonlar kabi ilmiy sohalarda xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda panjarali sistemalarda Gibbs o‘lchovlari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi № PQ-4387-son qarori

nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori va 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy-ilmiy tadqiqotlar sharxi. Gibbs o‘lchovlari va ulardan amaliy foydalanish bo‘yicha butun dunyo bo‘ylab yirik ilmiy markazlar va universitetlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, xususan Bonn va Boxum-Rur universitetlarii (Germaniya), Britaniya Kolumbiya Texnologiya instituti (Kanada), Bari va Rim universitetlarida (Italiya) olib borilmoqda. Fizika instituti (Serbiya), Rossiya fanlar akademiyasi V.A. Steklov nomidagi matematika instituti (Rossiya), Fields instituti (Kanada), Xarran universiteti (Turkiya), Indiana universiteti (AQSh), Aix-Marsel universiteti va Parij universiteti (Fransiya), Lids universiteti va London kolleji (Buyuk Britaniya), Kyusyu universiteti (Yaponiya), Malayziya Xalqaro Islom universiteti (Malayziya), Berlin texnika universiteti (Germaniya) va boshqalar.

Panjarali sistemalarda berilgan Gibbs o‘lchovlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bir qancha dolzarb masalalarni muvaffaqiyatli hal qildi. Ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz: daraxtlarda lokallashgan va lokal bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlarini birgalikda mavjudligi (Boxum-Rur universiteti, Germaniya), uchburchak panjarada yuqori zichlikdagi qattiq yadroli tasodifiy konfiguratsiyalarning Gibbs statistikasini rivojlantirish (Kembrij universiteti, Buyuk Britaniya) , umumlashgan Gibbs o‘lchovlarining asosiy xossalarini o‘rganish (Parij universiteti, Fransiya), Keli daraxtlarida berilgan Gamiltonian uchun tartibsiz fazalarning chetkiligi (Harran universiteti, Turkiya), konfiguratsiyalar fazosida Gibbs klaster holatlarining ehtimollik taqsimotini rivojlantirish (Lids universiteti, Buyuk Britaniya), cheksiz spinli sanoqsiz zarrachalar sistemalarining Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi va yagonaligi masalalari (York universiteti, Buyuk Britaniya), Gibbs o‘lchovlarining chegaraviy shartlariga mos erkin energiyalarni (va entropiyalarni) hisoblash (Aix-Marsel universiteti, Fransiya).

Bugungi kunda Gibbs o‘lchovlari nazariyasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Berilgan panjarali modellar uchun Gibbs o‘lchovlari mavjudligi va yagonaligini ifodalovchi shartlarni tadqiq etish, Gibbs o‘lchovlarining termodinamik chegaradagi xususiyatlarini tahlil qilish, panjarali sistemalarda fazaviy o‘tishlarning paydo bo‘lishi va xossalarini o‘rganish, Gibbs o‘lchovlarining xususiyatlarini o‘rganishda gruppaviy tasniflarning usullarini qo‘llash, Monte-Karlo simulyatsiyalari, stoxastik evolyutsiya tenglamalari kabi turli jarayonlarda spin sistemalarning dinamikasini tadqiq etish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gibbs o‘lchovi statistik mexanikadagi asosiy tushunchalardan biri bo‘lib, amerikalik fizik va matematik J. V. Gibbs tomonidan Gibbs holati tushunchasini kiritgan bo‘lib, bu tushuncha fizik sistemalarni band qilishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘plamidir. Nemis fizigi Ernst Ising dastlab 1925 yilda doktorlik dissertatsiyasida panjaradagi magnit spinlarni tasvirlash uchun bir o‘lchamli matematik modelni fanga kiritadi. 1944 yilda Lars Onsager esa Ernst Ising modelining ikki o‘lchamli bo‘lgan holini kiritadi va uning aniq yechimlarini ko‘rsatadi. L. Dobrushin, D. Lanford, D. Ryuel kabi olimlar tomonidan ehtimollik o‘lchovining Gibbs o‘lchovi bo‘lishi uchun zarur va yetarlilik sharti olingan bo‘lib, keyinchalik ushbu shart DLR tenglamasi deya atala boshlandi. Hozirda, matematiklar tomonidan Gibbs o‘lchovining ta’rifini DLR tenglamasi yordamida berish keng tarqalgan. Yuriy Pirogov va Yakov Sinay nomi bilan atalgan Pirogov-Sinay nazariyasi panjarali sistemalarda Gibbs o‘lchovlari yordamida fazalar almashinuvlarini o‘rganish uchun qat’iy matematik asosni taqdim etadi. Ushbu nazariyada fazaviy o‘tishlar sodir bo‘ladigan shartlar aniqlanadi va kritik nuqtalar yaqinida Gibbs o‘lchovlarining xarakterini tavsiflaydi. Bundan tashqari, V. Minlos, H. Georgii, A. Bleher, B. Simon, S. Zaxari, R. Kotecky, S. Shlosman, K. Preston, S. Friedli, Y. Velenik va boshqa olimlar panjarali sistemalarda fazaviy o‘tish hodisalarini tadqiq etishga katta hissa qo‘shdilar va Gibbs o‘lchovlarining matematik xossalari va panjarali tizimlarda Gibbs o‘lchovlarining matematik xossalari va xarakterini ifodalovchi qimmatli ma’lumotlarni chop etishdi.

Ma’lumki, Gibbs o‘lchovlar nazariyasida Keli daraxtlarida aniqlangan Gibbs o‘lchovlarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. K. Kulske, K. Preston, R. Baxter, V. Malishev, D. Gandolfo, J. Ruiz, P. Bleher, Y. Suhov, L. Bogachev, H. Akin, S. Temur va boshqalar alohida hamda birgalikda hamkorlik qilib, statistik mexanikaning modellariga mos Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tadqiq etishda katta hissa qo‘shdilar. Ularning ishlari asosan limit Gibbs o‘lchovlarining tahliliga, davriy Gibbs o‘lchovlariga va Gibbs o‘lchovlarini turli sohalarda, jumladan, biologiya, tibbiyot va iqtisodiyotda qo‘llash tahliliga qaratilgan. Ular turli sohalarda modellar uchun Gibbs o‘lchovlar to‘plamini bo‘sh bo‘lmasligi, fazaviy o‘tishlarni mavjudligiga oid nazariya va usullarni ishlab chiqdilar va rivojlantirdilar.

Hozirda tadqiqotchilar fizik sistemalarning Gamiltonianiga mos Gibbs holatlariga ko‘p e’tibor qaratmoqdalar. N. G‘anixo‘jaev, U. Rozikov va ularning ilmiy maktablarida Ising, SOS, HC va Potts kabi modellar uchun davriy Gibbs o‘lchovlari to‘plami faol tadqiq etib kelmoqdalar. Ayni paytda, F. Muhammedov, M. Rahmatullaev, O. Hakimov, I. Sattarov va A. To‘xtabaevlar yuqorida ko‘rsatilgan modellar bo‘yicha p-adik maydonlarda p-adik Gibbs o‘lchovlariga oid salmoqli natijalarga erishmoqdalar. Bundan tashqari, G‘. Botirov, M. Rahmatullaev, M. Rasulovalar ushbu modellarning asosiy holatlarini tavsiflashda daraxtlardagi kontur usulidan foydalanib, ma’lum haroratlarda davriy Gibbs o‘lchovlari sonini aniqladilar. Bir necha yil oldin nemis olimi K. Kulske daraxtlarda gradiyent Gibbs o‘lchovlarida oid maqola chop etdi. Hozirda A. Le Ny, L. Kokil, F. Henning, B. Jahnel, P. Shriever va boshqalar olimlar panjaralarda gradiyent Gibbs o‘lchovlari uchun ma’lum bo‘lgan natijalarga asoslanib, daraxtlarda gradiyent Gibbs o‘lchovlari oid ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Aytish joizki, ushbu sohaning rivojlanish muddati nisbatan qisqa bo‘lishiga qaramasdan O‘zbekiston olimlari tomonidan ko‘plab ilmiy maqolalar chop etilmoqda.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Matematika institutining YoF-4-3 “Sanoqli graflarda spin sistemalar extimollik o‘lchovlari” (2016-2017 yillar), O‘zbekiston Milliy universiteti YoF-4-8 “Matematik va statistik fizikaning noklassik masalalari» (2016-2017 yillar) va YoOT-Ftex-2018-154 raqamli “$\mathbb{Z}^d$ panjaralarida va Keli daraxtlarida aniqlangan Gamiltonianlar spektrlari va Gibbs o‘lchovlari” (2018-2019 y), OT-EA-4-02: “Kasr tartibli integro-differensial tenglamalar va bunday tenglamalarning yangi turlarini o‘rganish masalalari (2019-2020)” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi panjarali sistemalarda spin qiymatlari to‘plami chekli, sanoqli va kontinuum bo‘lgan modellar uchun spetsifikatsiyalarning yangi sinflarini qurish hamda ularga mos limit va gradiyent Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

panjarali sistemalarda ehtimollik bo‘lmagan yadrolar oilasi uchun yangi spetsifikatsiyani qurish;

spin qiymatlari sanoqli bo‘lgan HC va SOS modellari uchun davriy chegaraviy qonunga mos gradiyent va limit Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflash;

uzluksiz spin modellarning limit Gibbs o‘lchovlari va nochiziqli integral operatorlarning qo‘zg‘almas nuqtalari o‘rtasida bog‘lanishni aniqlash va ushbu modellar uchun Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi, yagonaligi va yagona bo‘lmasligini ta’minlovchi shartlar topish;

Keli daraxtidagi Izing modeli uchun translyatsion-invariant va davriy chegaraviy shartlar uchun erkin energiyalarni hisoblash, shuningdek, Keli daraxti gruppaviy tasvirining qism gruppalari uchun o‘zgarmaslik xossasini ta’minlash va ushbu xossani Izing modeliga qo‘llash.

Tadqiqotning ob’yekti: fazoviy va panjarali sistemalar, Gamiltonian, Gibbs o‘lchovi, gradiyent Gibbs o‘lchovi.

Tadqiqotning predmeti: Panjarali sistemalarni qurish, limit va gradiyent Gibbs o‘lchovlari haqida asosiy tushunchalar, Gibbs o‘lchovlari nazariyasi va nochiziqli operatorlar nazariyasi o‘rtasidagi bog‘lanishlar, tashqi maydonli Gamiltonian uchun erkin energiya, Keli daraxti gruppaviy tasvirining qism gruppalari.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot ishida o‘lchovlar nazariyasi usullari, funksional analiz, gruppalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va nochiziqli integral operatorlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

panjarali sistemalarda ehtimollik bo‘lmagan yadrolar oilasi uchun yangi spesifikatsiya qurilgan;

Keli daraxtida, sanoqli spin qiymatli SOS modeli uchun 4-davriy chegaraviy qonun yordamida aniqlangan gradiyent Gibbs o‘lchovlari to‘plami tavsiflangan va HC modeli uchun cheksiz ko‘p gradiyent Gibbs o‘lchovlari qurilgan;

Keli daraxtida uzluksiz spin modellar uchun Gibbs o‘lchovlarining mavjud va yagonaligi isbotlangan hamda limit Gibbs o‘lchovlarining fazaviy o‘tishlarini mavjudligi nochiziqli integral operatorlarning qo‘zg‘almas nuqtalari orqali isbotlangan;

tashqi maydonga ega Ising modeli uchun translyatsion-invariant va davriy chegaraviy shartlarining erkin energiyalari hisoblangan va Keli daraxti gruppaviy tasvirining qism gruppalari uchun invariantlik xossasini saqlaydigan yetarlilik sharti olingan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

statistik mexanika modellari uchun berilgan Gibbs o‘lchovlari erkin energiyasining matematik formulasi va hisoblash usullari keltirilgan;

biologik modellar uchun zarrachalar va molekulalar spin sistemalarini tasniflashning matematik usullari bayon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Nochiziqli operatorlar nazariyasi, funksional analiz, o‘lchovlar va ehtimollar nazariyasi, gruppa va graflar nazariyasi, Gibbs o‘lchovlar nazariyasining texnika va usullaridan foydalanilgan. Olingan natijalarning isboti qat’iy matematik mulohazalarga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati panjarali sistemalarda berilgan statistik mexanikaning sanoqli spin qiymatga ega modellari uchun fazaviy o‘tishlar mavjudligi gradiyent Gibbs o‘lchovlari to‘plamini tavsiflashda qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Gammershteyn tipidagi nochiziqli integral tenglamaning qo‘zg‘almas nuqtalaridan foydalanib uzluksiz spin modellar uchun Gibbs o‘lchovlarini qurish va fazaviy o‘tishlar mavjudligini tekshirish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Panjarali sistemalarda limit va gradiyent Gibbs o‘lchovlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

daraxtlarda berilgan tashqi maydonga ega Ising modeli uchun translatsion-invariant va davriy chegaraviy shartlarining erkin energiyalari hisoblash usullaridan G0003247 raqamli “Panjarali modellarning qayta normallashgan gruppalariga mos aralash p-adik dinamik sistemalari va xaotikligi” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida Keli daraxtida raqobatlashuvchi ta’sirga ega bo‘lgan potensiallar energiyasi uchun yangi Gibbs o‘lchovlarini topishda foydalanilgan (Birlashgan Arab

Amirliklari universitetining 2024 yil 20-maydagi ma’lumotnoma, BAA). Ilmiy natijani qo‘llanishi sanoqli spin qiymatli fizik va biologik sistemalarning muvozanat holatlarini yoritish imkonini bergan;

Keli daraxtida berilgan uzluksiz spin qiymatli modellar uchun davriy Gibbs o‘lchovlarni ifodalaydigan nochiziqli operatorlarning qo‘zg‘almas nuqtalarining mavjud va yagonalik teoremalaridan FRGS21-230-0839 raqamli “Chekli o‘lchamli, ortogonallikni saqlovchi kubik stoxastik operatorlarning dinamikasi” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida spin modellarga mos Gibbs o‘lchovlarning mavjudligi va yagonaligini tekshirishda qo‘llanilgan (Malayziya xalqaro islom universitetining 2024 yil 30-maydagi ma’lumotnoma, Malayziya). Ilmiy natijani qo‘llanishi spin sistemalarning faza almashishlarini mavjudligini tekshirish imkonini bergan;

panjarali sistemalarda ehtimollik bo‘lmagan yadrolar oilasi uchun yangi spesifikatsiya qurish usullaridan xorijiy ilmiy jurnallarda (Physical Review E, 2015, 92, 022106; Europhysics Letters, 2021, 133(2); Journal of Statistical Physics, 2014, 157(2); Chinese Journal of Physics, 2022, 77; Mathematical Physics, Analysis, and Geometry, 2016, 19(4)) statistik mexanikadagi Gauss, Potts-SOS va Vannimenus modellarining Gibbs o‘lchovlari va ularning erkin energiyalarini hisoblashda foydalanilgan. Ilmiy natijaning qo‘llanishi fizik sistemalardagi Gamiltonianga mos Gibbs o‘lchovlarini tahlil qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ish ilmiy jurnallarda chop etilgan bo‘lib, ularning barchasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining fan doktori dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan bo‘lib, jumladan, 16 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 191 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sistemalarda $\mathbb{F}$-spesifikatsiyaning Gibbs o‘lchovlari”** deb nomlangan bo‘lib, keyingi boblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan ma’lumot va natijalardan iborat. Shuningdek ayrim ma’lum natijalarni o‘lchovlar nazariyasi tilida, soddaroq usullarda ham isbotlari keltirilgan. Birinchi bobning asosiy yangi natijasi sifatida kvazi ehtimollik yadrosi bo‘lmagan yadrolar spesifikatsiyasi qurilganligini keltirish mumkin.

Bo‘sh bo‘lmagan D to‘plamda $\preceq$ qisman tartib munosabati berilgan bo‘lsin. Agar D to‘plamning ixtiyoriy bo‘sh bo‘lmagan qism to‘plami aniq yuqori chegaraga ega bo‘lsa, u holda qisman tartiblangan to‘plam *to‘la* deyiladi. Agar $\{z_n\}_{n\geq 1}$ ketma-ketlik, to‘la D to‘plamdan olingan o‘suvchi ketma-ketlik, ya’ni $z_n \preceq z_{n+1}$, $n \in \mathbb{N}$ bo‘lsa, u holda $\lim\limits_{n} z_n := \sup(\{z_n : n \geq 1\})$.

D to‘plamning qisman tartiblangan to‘la N va E qism to‘plamlari bo‘lib, $\psi : N \to E$ akslantirish bo‘lsin. Agar ψ akslantirish monoton (ya’ni, barcha $w \preceq z$ elementlar uchun $\psi(w) \preceq \psi(z)$) bo‘lib, N dan olingan barcha o‘suvchi $\{z_n\}_{n\geq 1}$ ketma-ketliklar uchun $\psi\left(\lim\limits_{n\to\infty} z_n\right) = \lim\limits_{n\to\infty} \psi(z_n)$ bo‘lsa, u holda ψ *uzluksiz* akslantirish deyiladi.

Agar ixtiyoriy $z_1, z_2 \in D$ elementlar uchun $z_1 \preceq a$ va $z_2 \preceq a$ shartlarni qanoatlantiruvchi $a \in D$ element (z_1 va z_2 ga bog‘liq ravishda) topilsa, u holda $\preceq$ qisman tartib *yo‘naltirilgan* deyiladi. Shuningdek, agar D ning sanoqli D_0 qism to‘plami mavjud bo‘lib, har bir $z \in D$ element uchun $z \preceq z_0$ shartni qanoatlantiradigan $z_0 \in D_0$ mavjud bo‘lsa, u holda $\preceq$ tartib munosabati *sanoqli tashkil qiluvchiga ega* deyiladi.

S bo‘sh bo‘lmagan to‘plam uchun $N \subset \mathcal{P}(S) := \{A \mid A \subset S\}$ shartni qanoatlantiradigan yo‘naltirilgan va sanoqli tashkil qiluvchiga ega bo‘lgan $(N, \subseteq)$ tartiblangan to‘plamni qaraymiz. Har bir $\Lambda \in N$ va bo‘sh bo‘lmagan X to‘plamga mos $\mathcal{F}^{\Lambda} \subset \mathcal{P}(X)$ sigma algebralar berilgan bo‘lsin. Barcha $\Lambda, \Delta \in N$ to‘plamlar uchun σ-algebralar oilasi $\mathcal{F}^{\Lambda\cup\Delta} = \mathcal{F}^{\Lambda} \vee \mathcal{F}^{\Delta}$ shartni qanoatlantirsin, bu yerda $\mathcal{F}^{\Lambda} \vee \mathcal{F}^{\Delta} := \mathcal{S}(\mathcal{F}^{\Lambda} \cup \mathcal{F}^{\Delta})$, ya’ni $\mathcal{F}^{\Lambda} \cup \mathcal{F}^{\Delta}$ to‘plamlar oilasini o‘z ichiga oluvchi minimal σ-algebra. Quyidagi belgilashni aniqlaylik: $\mathcal{A} := \bigcup\limits_{\in\in N} \mathcal{F}^{\Lambda}$, $\mathcal{F} = \mathcal{S}(\mathcal{A})$. U holda $(X, \mathcal{F})$ o‘lchovli fazo bo‘ladi. Endi, $\mathcal{F}$ ning qism σ-algebralaridan iborat kamayuvchi $\mathbb{F} = \{\mathcal{F}_A\}_{A\in N}$ oilani qaraymiz, bu yerda $\mathcal{F}_{\Lambda} := \mathcal{S}(\cup_{\Delta\in N, \Delta\in S\setminus\Lambda} F^{\Delta})$.

Yuqoridagi shartlarni qanoatlantiruvchi S, N, X va $\{\mathcal{F}_{\Lambda}\}_{\Lambda\in N}$ to‘plamlar to‘rtligi $\Sigma := \left(S, N, X, \{\mathcal{F}_{\Lambda}\}_{\Lambda\in N}\right)$, N da $\subset$ tartib munosabati bilan *fazoviy sistema* deyiladi.

$\mathcal{F}^{\Lambda}$ algebrada aniqlangan barcha ehtimollik o‘lchovlari oilasini $\mathrm{P}(\mathcal{F}^{\Lambda})$ bilan belgilaymiz. Barcha $\Lambda \in N$ to‘plamlar uchun $\mu_{\Lambda} \in \mathrm{P}(\mathcal{F}^{\Lambda})$ o‘lchovlarni $\{\mu_{\Lambda}\}_{\Lambda\in N}$ oilasini qaraylik. Agar ixtiyoriy $F \in \mathcal{F}^{\Lambda}$, $\Lambda \subset \Delta$ uchun $\mu_{\Lambda}(F) = \mu_{\Delta}(F)$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $\{\mu_{\Lambda}\}_{\Lambda\in N}$ oila *muvofiqlashgan* deyiladi. Ixtiyoriy $\{\mu_{\Lambda}\}_{\Lambda\in N}$

muvofiqlashgan oila uchun, barcha $F \in \mathcal{F}^{\Lambda}, \Lambda \in N$ uchun $\mu(F) = \mu_{\Lambda}(F)$ tenglikni qanoatlantiradigan $\mu \in \mathrm{P}(\mathcal{F})$ o‘lchov topilsa, $\left\{\mathcal{F}^{\Lambda}\right\}_{\Lambda \in N}$ σ-algebralar oilasi Kolmogorov kengaytmasi xossasini qanoatlantiradi deyiladi va ushbu oilaga mos keladigan Σ fazoviy sistema ham Kolmogorov kengaytmasi xossasini qanoatlantiradi deyiladi.

X to‘plamni $\mathbb{R}_{\infty}^{+} = [0, \infty]$ ga akslantiruvchi barcha akslantirishlar oilasini $M(X)$ bilan belgilaymiz. $\mathbb{R}$ da Borel algebrasi $\mathcal{B}(\mathbb{R})$ va $(X, \mathcal{F})$ ni $\left(\mathbb{R}_{\infty}^{+}, \mathcal{B}_{\infty}^{+}\right)$ ga o‘tkazuvchi barcha o‘lchovli akslantirishlar oilasini $M(\mathcal{F})$ bilan belgilaymiz, bu yerda $\mathcal{B}_{\infty}^{+} = \mathcal{B}(\mathbb{R}) \cap \mathbb{R}_{\infty}^{+}$. Agar $M(X)$ ni standart qisman tartiblangan (ya’ni $f \preceq g$ faqat va faqat $f \leq g$ bo‘lsa) to‘plam sifatida qarasak, $M(\mathcal{F})$ fazo $M(X)$ ning to‘la qism fazosi bo‘ladi.

$(Z, \mathcal{E})$ va $(Z_1, \mathcal{E}_1)$ o‘lchovli fazolar uchun, $\kappa : Z \times \mathcal{E}_1 \to \mathbb{R}_{\infty}^{+}$ akslantirish, barcha $x \in Z$ elementlar uchun $\kappa(x, \cdot)$ o‘lchov va barcha $A \in \mathcal{E}_1$ to‘plamlar uchun $\kappa(\cdot, A)$ o‘lchovli akslantirish bo‘lsa, u holda ushbu akslantirish $(Z, \mathcal{E}) | (Z_1, \mathcal{E}_1)$*-yadro* deyiladi. Barcha $A \in \mathcal{E}_1$ to‘plamlar uchun $\Phi_{\kappa}\left(I_A\right) = \kappa(\cdot, A)$ tenglikni qanoatlantiradigan yagona chiziqli uzluksiz $\Phi_{\kappa} : \mathrm{M}(\mathcal{E}_1) \to \mathrm{M}(\mathcal{E})$ akslantirish mavjud, bu yerda I_A xarakteristik funksiya. Demak, Φ_{κ} akslantirishni shunchaki κ ko‘rinishida yozishimiz mumkin ekan. Agar ixtiyoriy $x \in Z$ uchun $\kappa(I_{Z_1})(x) < \infty$ munosabat o‘rinli bo‘lsa, u holda $\kappa : \mathrm{M}(\mathcal{E}_1) \to \mathrm{M}(\mathcal{E})$ yadro *chekli* deyiladi. Agar chekli yadro $\kappa(I_{Z_1}) = I_Z \cdot$tenglikni bajarsa, u holda *ehtimollik yadrosi* deyiladi. Shuningdek, $\kappa(I_{Z_1}) \in \{\mathbf{0}, I_Z\}$ bo‘lsa, u holda$\cdot\kappa$ yadro *kvazi-ehtimollik yadrosi* deyiladi, bu yerda $\mathbf{0}$ aynan nol funksiya.

Yadro $\kappa : \mathrm{M}(\mathcal{E}_1) \to \mathrm{M}(\mathcal{E})$ va $\mu : \mathrm{M}(\mathcal{E}) \to \mathbb{R}_{\infty}^{+}$ o‘lchovning kompozitsiyasi deb ixtiyoriy $f \in \mathrm{M}(\mathcal{E}_1)$ uchun $(\mu\kappa)(f) = \mu(\kappa(f))$ tenglikni qanoatlantiruvchi $\mu\kappa : \mathrm{M}(\mathcal{E}_1) \to \mathbb{R}_{\infty}^{+}$ akslantirishga aytiladi. Ya’ni, barcha $A \in \mathcal{E}$ to‘plamlar uchun $(\mu\kappa)(A) = \mu\left(\kappa\left(I_A\right)\right) = \mu(\kappa(\cdot, A))$ tenglikni qanoatlantiradi.

1-ta’rif. *i) Fazoviy sistema* $\left(S, N, X, \left\{\mathcal{F}_{\Lambda}\right\}_{\Lambda \in N}\right)$ *uchun,* κ_{Δ} *xos* $(Z, \mathcal{F}_{\Delta}) | (Z, \mathcal{F}_{\Delta})$ *-o‘lchovli kvazi-ehtimollik yadrosi* $\kappa_{\Delta} \in \mathrm{K}(\mathcal{F})$, $\Delta \in N$ *bo‘lsin. Ixtiyoriy* $A, B \in N$, $A \preceq B$ *to‘plamlar uchun* $\kappa_B = \kappa_B \kappa_A$ *tenglikni qanoatlantiruvchi kvazi-ehtimollik yadrolar oilasi* $\mathcal{V} = \left\{\kappa_A\right\}_{A \in N}$, $\mathbb{F}$*-**spesifikatsiya** deyiladi. Bu yerda va bundan keyin,* $\kappa_B \kappa_A$ *sifatida yadrolar kompozitsiyasini belgilangan.*

*ii) Ixtiyoriy $A \in N$ to'plam uchun $\mu = \mu\kappa_A$ tenglikni qanoatlantiruvchi $\mu \in \mathrm{P}(\mathcal{F})$ extimollik o'lchovi $\mathcal{V}$ spesifikatsiyaga mos **Gibbs o'lchovi** deyiladi. Oxirgi tenglik esa **DLR** tenglamasi deb ataladi.*

$\mathcal{V}$ spesifikatsiyaga mos Gibbs o'lchovlari to'plamini $\mathcal{G}(\mathcal{V})$ ko'rinishda belgilaymiz, ya'ni

$$\mathcal{G}(\mathcal{V}) = \left\{ \mu \in \mathrm{P}(\mathcal{F}) : \mu = \mu\kappa_A \text{ barcha } A \in N \right\}.$$

Agar fazoviy sistemadagi indekslar to'plamini sanoqli to'plam sifatida olinsa, u holda ushbu sistema *panjarali sistema* deyiladi.

Tartibi $k \geq 1$ bo'lgan *Keli daraxtini* (ya'ni, $k+1-$regulyar daraxt) $\Im^k = (V, L)$ ko'rinishda belgilaylik, V va L mos ravishda qirralar va uchlar to'plamini belgilaymiz. Odatda, modelning spin qiymatlari $\Phi \subset \mathbb{R}_+^\infty$ dan olinadi, va spin qiymatlar daraxtning uchlariga mos qo'yiladi. Ixtiyoriy $A \subset V$ to'plamda aniqlangan $\sigma_A : A \to \Phi$ akslantirish A to'plamda aniqlangan σ_A konfiguratsiya deyiladi. A da aniqlangan barcha konfiguratsiyalar oilasini $\Omega_A = \Phi^A$ ko'rinishida belgilaymiz; xususan $\Omega := \Phi^V$. Daraxni uchlari to'plamini nomerlab chiqaylik ya'ni $V = \{x_0, x_1, x_2, ...\}$.

Agar $\mathcal{I}_A$ xarakteristik funksiya bo'lsa, u holda ixtiyoriy ikkita $\sigma, \sigma' \in \Omega$ konfiguratsiyalar uchun $C(\sigma, \sigma') = \{x \in \{x_0, x_1, x_2, ...\} \mid \sigma(x) \neq \sigma'(x)\}$ to'plamni aniqlaymiz. Natijada, Ω ni quyidagi

$$\rho\left(\left\{ \sigma(x_n) \right\}_{x_n \in V}, \left\{ \sigma'(x_n) \right\}_{x_n \in V} \right) = \sum_{n \geq 0} 2^{-n} \mathcal{I}_{x_n \in C(\sigma, \sigma')} \qquad (1)$$

$\rho : \Omega \times \Omega \to \mathbb{R}^+$ metrika bo'yicha metrik fazo sifatida qarashimiz mumkin. $\mathcal{B}$ bilan Ω ning Borel qism to'plamlari σ-algebrasini belgilaylik.

Har bir $m \geq 0$ uchun $\pi_m : \Omega \to \Phi^{m+1}$ proyeksiyani quyidagi korinishda yozib olamiz $\pi_m(\sigma_0, \sigma_1, \sigma_2, ...) = (\sigma_0, \ldots, \sigma_m)$ va $\mathcal{C}_m = \pi_m^{-1}\left(\mathcal{P}\left(\Phi^{m+1}\right)\right)$, bu yerda $\sigma_i := \sigma(x_i)$ va $\mathcal{P}\left(\Phi^{m+1}\right)$ esa Φ^{m+1} ning barcha qism to'plamlari oilasi (Φ ning dekart ko'paymasi). Agar $\mathcal{C} = \bigcup_{m \geq 0} \mathcal{C}_m$ bo'lsa, u holda $\mathcal{C}$ algebra bo'ladi (the algebra of *silindr to'plamlar* algebrasi) va $\mathcal{C}$ dagi har bir element bir vaqtda ochiq ham yopiq bo'ladi. $\mathcal{S}(\mathcal{C})$ sifatida $\mathcal{C}$ ni o'z ichiga olgan minimal σ-algebrani belgilaymiz. Asosi birga teng bo'lgan silindrlarni quyidagicha yozib olaylik:

$$\sigma^{(m)}(q) = \left\{ \sigma \in \Omega : \sigma|_{\{x_m\}} = q \in \Phi \right\}.$$

$(X, \mathcal{E})$ o'lchovli fazo uchun $\mathcal{E}$ ning sanoqli $\mathcal{I}$ qism to'plami mavjud bo'lib, $\mathcal{E} = \mathcal{S}(\mathcal{I})$ tenglik o'rinli bo'lsa, u holda ushbu o'lchovli fazo sanoqli *tashkil qiluvchiga ega* deyiladi.

1-tasdiq. *Ushbu* $\mathcal{B}=\mathcal{S}(\mathcal{C})=\mathcal{S}\left(\left\{\sigma^{(m)}(q): m\geq 0,\, q\in\Phi\right\}\right)$ *tenglik o'rinli va agar* $|\Phi|<\infty$ *bo'lsa, u holda* $(\Omega,\mathcal{B})$ *sanoqli tashkil qiluvchiga ega bo'ladi.*

Natija sifatida, $\mathcal{B}=\mathcal{S}\left(\left\{\bar{\sigma}_{V_n}: n\in\mathbb{N}_0\right\}\right)$ tenglik o'rinli bo'ladi. O'lchovli fazo $(\Omega,\mathcal{F})$, indekslar to'plami V qism to'plam $\subseteq$ munosabatiga ko'ra va $\mathcal{F}$ ning kamayuvchi qism σ-algebralar oilasi $\mathbb{F}=\left\{F_\Lambda\right\}_{\Lambda\in\mathcal{N}}$, (bu yerda $F_\Lambda:=\mathcal{S}(\mathcal{C}_\Lambda)$) bo'lsin. Ravshanki, $(\mathcal{N},\subseteq)$ qisman tartiblangan to'plam yo'naltirilgan (ya'ni barcha $A_1,A_2\in\mathcal{N}$ uchun $A_1\subseteq A$, $A_2\subseteq A$ ni bajaradigan $A\in\mathcal{N}$ mavjud) va sanoqli tashkil qiluvchiga ega (ya'ni, $\mathcal{N}$ ning sanoqli qism to'plami $\{V_n\}_{n\in\mathbb{N}}$ mavjud, bunda har bir $A\in\mathcal{N}$ uchun $V_{n_0}\in\{V_n\,|\,n\in\mathbb{N}\}$, $A\subseteq V_{n_0}$ mavjud).

Ushbu $\Sigma:=\left(V,\mathcal{N},\Omega,\left\{F_\Lambda\right\}_{\Lambda\in\mathcal{N}}\right)$ to'rtlik *panjarali sistema bo'ladi,* bu yerda $(V,\mathcal{N})$, Ω va $\left\{F_\Lambda\right\}_{\Lambda\in\mathcal{N}}$ to'plamlar yuqorida aniqlangan va $\mathcal{N}$ dagi tartib munosabati $\subseteq$. Qo'shimcha sifatida shuni takidlash lozimki, (Ω,ρ) separabel va to'la metrik fazo.

1-teorema. $\mathcal{N}_1\subset\mathcal{N}$ *yo'nalishga ega va barcha* $\Lambda\in\mathcal{N}_1$ *uchun* $\mu_\Lambda\in\mathrm{P}\left(\mathcal{F}^\Lambda\right)$ *bo'lsin. Agar* $\left\{\mu_\Lambda\right\}_{\Lambda\in\mathcal{N}_1}$ *muvofiqlik shartini qanoatlantirsa, u holda barcha* $F\in F^\Lambda,\Lambda\in\mathcal{N}_1$ *uchun* $\mu(F)=\mu_\Lambda(F)$ *tenglikni qanoatlantiradigan yagona* $\mu\in\mathrm{P}(\mathcal{F})$ *extimollik o'lchovi mavjud.*

$\mathcal{B}_n$ sifatida $\Omega_n=\Omega_{V_n}$ ning barcha Borel to'plamlarining σ-halqasini belgilaylik. Shuningdek, $(\Omega_n,\mathcal{B}_n)$, $n\in\mathbb{N}$ da aniqlangan μ_n o'lchov berilgan bo'lsin.

2-teorema. *Agar* $\left\{\mu_n\right\}_{n=1}^{\infty}$ *o'lchovlar oilasidan biri* μ_{n_0} σ*-chekli bo'lsa, u holda* $\left\{\mu_n\right\}_{n=1}^{\infty}$ *oilani* $\mathcal{B}$ *da aniqlangan* σ*-additiv o'lchovgacha yagona tarzda davom etadi.*

2-ta'rif. *Barcha* $\Lambda\in\mathcal{N}$ *lar uchun* $P_\Lambda:\Omega\to\overline{\mathbb{R}}:=\mathbb{R}\cup\{-\infty,\infty\}$ *bilan* $\mathcal{F}_\Lambda$*-o'lchovli akslatirish belgilaylik, u holda* $P=\left\{P_\Lambda\right\}_{\Lambda\in\mathcal{N}}$ *oila potensial deyiladi. Shunindek, ushbu ifoda*

$$H_{\Delta,P}(\sigma)\overset{\mathrm{def}}{=}\sum_{\Delta\cap\Lambda\neq\varnothing,\Lambda\in\mathcal{N}}P_\Lambda(\sigma),\quad\forall\sigma\in\Omega.\tag{2}$$

P *potensialga mos* H *Gamiltonian deyiladi.*

$r(P)\overset{\mathrm{def}}{=}\inf\left\{R>0: P_\Lambda\equiv 0 \text{ barcha } \Lambda,\ \mathrm{diam}(\Lambda)>R\right\}$ bo'lsin. $r(P)<\infty, P$ chekli bo'lsa, u holda $H_{\Delta;P}$ to'g'ri aniqlangan bo'ladi. Agar $r(P)=\infty$ bo'lsa, u holda P ning qiymatlari cheksiz bo'ladi, Gamiltonian to'g'ri aniqlangan bo'lishi uchun, P norma bo'yicha absalyut yaqinlashuvchiligini talab qilamiz:

$$\sum_{\Lambda\in\mathcal{N},x\in\Lambda}\left\|P_\Lambda\right\|_\infty<\infty,\quad\forall x\in V,$$

(bu yerda $\| f \|_\infty \stackrel{\text{def}}{=} \sup_\omega | f(\omega) |\big)$, spinlarning ta'siri doim chegaralangan bo'lishi kerak, va $\left\| H_{\Delta;P} \right\|_\infty < \infty$.

$\mathcal{N}_1 = \{V_n : n \in \mathbb{N}\}$ bo'lsin, u holda $V_n, n \in \mathbb{N}$ da Gamiltonianni quyidagicha aniqlaymiz:

$$H_n(\sigma) = \sum_n P_{V_n}(\sigma), \quad \forall \sigma \in \Omega. \tag{3}$$

Endi spesifikatsiyani $\zeta^H = \left\{\zeta^H_{V_n}\right\}_{n\in\mathbb{N}}$ (qisqacha $\zeta^H_{V_n} := \zeta^H_n$) aniqlaymiz. Har bir $\tau_{V_n}\omega^c_{V_n}$ konfiguratsiya uchun, statistik mexanikadagi Boltzmann massasining muvozanatiga proporsional bo'lgan $\zeta^H_{V_n}(\cdot \mid \omega)$ ifodani beradi, ya'ni:

$$\zeta^P_n\left(\omega, \sigma_n\right) \stackrel{\text{def}}{=} \frac{1}{\mathbf{Z}^\omega_n} e^{-H_n\left(\sigma_n \omega_{\bar{V}_n}\right)}, \tag{4}$$

bu yerda, yozilgan ifoda $\omega_{\bar{V}_n}$ va taqsimot $\mathbf{Z}^\omega_n$ funksiyalarga bog'liq, ya'ni,

$$\mathbf{Z}^\omega_n \stackrel{\text{def}}{=} \sum_{\sigma_n \in \Omega_{V_n}} \exp\left(-H_n\left(\sigma_n \omega_{\bar{V}_n}\right)\right).$$

Ushbu $\mathbb{F}_1 := \left\{\zeta^P_n\right\}_{n\in\mathbb{N}}$ oilani aniqlab olaylik, u holda quyidagi teorema o'rinli:

3-teorema. $\mathbb{F}_1$ *spesifikatsiya bo'ladi.*

Dissertatsiyaning **"Panjarali sistemalarda gradiyent Gibbs o'lchovlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida, sanoqli spin qiymatli HC modeli uchun barcha davriy Gibbs o'lchovlari to'liq tahlil qilingan va Bleher-G'anixo'jaev usuli yordamida kontinuum quvvatli Gibbs o'lchovlari to'plami qurilgan. Shuningdek, sanoqli spin qiymatli SOS modeli uchun 4 davriy chegaraviy qonun yordamida aniqlangan gradiyent Gibbs o'lchovlari o'rganiladi.

Uchlari $\mathbb{Z}$ butun sonlar to'plamida bo'lgan cheksiz G grafni qaraylik. Agar σ konfiguratsiya va x, y qo'shni uchlar uchun $\{\sigma(x), \sigma(y)\}$ juftlik G grafning qirrasi bo'lsa, u holda konfiguratsiya G-joiz konfiguratsiya deyiladi. Barcha joiz konfiguratsiyalar oilasi Ω^G ko'rinishda belgilanadi.

$\lambda : G \mapsto \mathbb{R}_+$ chegaralangan funksiya berilgan bo'lsin va λ_i lar λ funksiyaning $i \in \mathbb{Z}$ uchdagi "faolligi" deyiladi.

Berilgan G graf va λ ga mos HC-modeli quyidagi aniqlanadi:

$$H^\lambda_G(\sigma) = \begin{cases} J \sum_{x\in V} \ln \lambda_{\sigma(x)}, & \text{agar } \sigma \in \Omega^G, \\ +\infty, & \text{agar } \sigma \notin \Omega^G, \end{cases} \tag{5}$$

bu yerda $J \in \mathbb{R}$.

3-ta'rif *1) Ushbu* $l = \left\{l_{xy}\right\}_{\langle x,y\rangle \in L}$, $l_{xy} = \left\{l_{xy}(i) : i \in \mathbb{Z}\right\} \in (0,\infty)^{\mathbb{Z}}$ *vektorlar oilasi ixtiyoriy* $\langle x,y\rangle \in L$ *qirra va barcha* $i \in \mathbb{Z}$ *uchun*

$$l_{xy}(i) = c_{xy}\lambda_i \prod_{z \in \partial x \setminus \{y\}} \sum_{j \in \mathbb{Z}} a_{ij} l_{zx}(j) \tag{6}$$

tenglikni qanoatlantiradigan shunday $c_{xy} > 0$ *mavjud bo'lsa, u holda (5) model uchun chegaraviy qonun deyiladi.*

2) Agar l *chegaraviy qonun va barcha* $x \in V$ *uchlar uchun*

$$\sum_{i \in \mathbb{Z}} \left(\lambda_i \prod_{z \in \partial x} \sum_{j \in \mathbb{Z}} a_{ij}\, l_{zx}(j) \right) < \infty$$

munosabat o'rinli bo'lsa, u holda ushbu chegaraviy qonun normallashgan deyiladi.

Berilgan $\omega = \{\omega_x \mid x \in V\}$ konfiguratsiya uchun Q_b simmetrik o'tish matritsasi

$$Q_b(\omega_b) := \lambda_{\omega_x} a_{\omega_x,\omega_y} \lambda_{\omega_y},$$

ko'rinishda bo'ladi, bu yerda $\omega_b = \{\omega_x, \omega_y\}$.

Chekli qism to'plam $\Lambda \subset V$ uchun (Markov) Gibbs spesifikatsiyasi

$$\gamma_\Lambda^\lambda(\omega : \omega|_\Lambda = \sigma_\Lambda) = (Z_\Lambda^\lambda)(\omega)^{-1} \prod_{\langle x,y\rangle, \{x,y\} \cap \Lambda \neq \varnothing} \lambda_{\omega_x} a_{\omega_x,\omega_y} \lambda_{\omega_y},$$

ko'rinishda bo'ladi, bu yerda $Z_\Lambda^\lambda(\omega)$ taqsimot funksiya.

Berilgan $(Q_b)_{b \in L}$ o'tish matritsasiga mos keluvchi Gibbs spesifikatsiyasi uchun quyidagi mulohazalar o'rinli:

1. Har qanday normallashgan $(l_{xy})_{x,y}$ chegaraviy qonun uchun, $(Q_b)_{b \in L}$ operator ushbu

$$\mu(\sigma_{\Lambda \cup \partial\Lambda} = \omega_{\Lambda \cup \partial\Lambda}) = (Z_\Lambda^\lambda)^{-1} \prod_{y \in \partial\Lambda} l_{yy_\Lambda}(\omega_y) \prod_{b \cap \Lambda \neq \varnothing} Q_b(\omega_b) =$$

$$= (Z_\Lambda^\lambda)^{-1} \prod_{\langle x,y\rangle, \{x,y\} \cap \Lambda \neq \varnothing} \lambda_{\omega_x} a_{\omega_x,\omega_y} \lambda_{\omega_y}, \tag{7}$$

tenglikni qanoatlantiradigan yagona μ Gibbs o'lchovini aniqlaydi, bu yerda $y \in \partial\Lambda$ va y_Λ esa Λ dagi y ning qo'shnisi.

2. Aksincha, har qanday μ Gibbs o'lchoviga (7) ko'rinishda ifodalanadigan normallashgan chegaraviy qonun (musbat o'zgarmas songa faktorlashga nisbatan yagona) mos keladi.

G^* sifatida quyidagicha grafni aniqlaymiz $a_{i0}=1$ barcha $i\in\mathbb{Z}$ va $a_{im}=0$ barcha $i,m\in\mathbb{Z}_0$. Berilgan $l_{xy}(i)$ chegaraviy qonun uchun, $z_{i,x}=l_{xy}(i)$ belgilashni kiritamiz, bu yerda x element y ning keyingi avlodi, barcha keyingi avlodlar to‘plami $S(y)$, Ushbu graf uchun (6) quyidagicha yozib olamiz:

$$z_{i,x}=\lambda_i\prod_{y\in S(x)}\frac{1}{1+\sum\limits_{j\in\mathbb{Z}_0} z_{j,y}},\quad i\in\mathbb{Z}_0. \tag{8}$$

Agar

$$\mathcal{U}^+:=\left\{z_x=\left(\ldots z_{-2,x},z_{-1,x},z_{0,x},z_{1,x},z_{2,x},\ldots\right)\mid z_{i,x}\in(0,+\infty),\ z_{0,x}=1,\ \forall x\in V\right\},$$

$$\mathcal{T}^+:=\left\{z_x\in\mathcal{U}^+\mid\sum_{i\in\mathbb{Z}} z_{i,x}<\infty\right\}.$$

belgilashlarni kiritsak, u holda (8) ni quyidagicha ko‘rinishda yozib olish mumkin

$$z_x=\lambda\prod_{y\in S(x)}\frac{1}{1+\|z_y\|},\quad z_x\in\mathcal{U}^+,\ \forall x\in V, \tag{9}$$

bu yerda $\lambda=(\ldots,\lambda_{-2},\lambda_{-1},1,\lambda_1,\lambda_2,\ldots)\in\mathcal{U}^+$ va $\|z_y\|:=\sum_{i\in\mathbb{Z}}\|z_{i,y}\|$.

Qisqaroq belgilash uchun (9) ni yangi $W:\mathcal{T}^+\to\mathcal{T}^+$ operatorning qo‘zg‘almas nuqtasi ko‘rinishda yozish mumkin, ya’ni $z_x=Wz_x$.

4-teorema. Agar $k\geq 2$ *va* $\lambda\in\mathcal{T}^+$ *bo‘lsa, u holda quyidagilar o‘rinli*

1. Agar $\|\lambda\|\leq\Lambda_{cr}$ *bo‘lsa, u holda* $\lim\limits_{n\to\infty}W^{(n)}(z_0)=\xi\lambda$, $z_0\in\mathcal{T}^+$.

2. Agar $\|\lambda\|>\Lambda_{cr}$ *va* $z_0=\alpha_0\lambda$, $\alpha_0\in(0,\xi)$ *bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W^{(2n)}(z_0)=\alpha^*\lambda,\ \lim_{n\to\infty}W^{(2n-1)}(z_0)=\beta^*\lambda.$$

3. Agar $\|\lambda\|>\Lambda_{cr}$ *va* $z_0=\alpha_0\lambda$, $\alpha_0\in(\xi,1)$ *bo‘lsa, u holda*

$$\lim_{n\to\infty}W^{(2n)}(z_0)=\beta^*\lambda,\ \lim_{n\to\infty}W^{(2n-1)}(z_0)=\alpha^*\lambda.$$

4. Agar $\alpha_0=\xi$ *bo‘lsa, u holda* $\lim\limits_{n\to\infty}W^{(n)}(z_0)=\xi\lambda$.

Agar $\|\lambda\|>\Lambda_{cr}\approx 2.7$ bo‘lsa, u holda (8) ikkita davriy $(\alpha^*\lambda,\beta^*\lambda)$ yechimga ega. Agar $u=(\ldots,u_{-2},u_{-1},0,u_1,u_2,\ldots),v=(\ldots,v_{-2},v_{-1},0,v_1,v_2,\ldots)\in\mathcal{T}^+$ bo‘lsa, u holda $\mathcal{T}^+$ to‘plamda qisman tartib munosabatini quyidagicha aniqlaymiz: barcha $i\in\mathbb{Z}$ uchun $u_i\leq v_i$ tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda $u\preceq v$.

2-tasdiq. *Agar* z_x *(8) tenglamaning yechimi bo'lsa, u holda barcha* $x \in V$ *uchun* $\alpha^* \lambda \preceq z_x \preceq \beta^* \lambda$ *munosabat o'rinli.*

Yarim Keli daraxti $\Gamma_0^k = (V_0, L_0)$ ni qaraylik va x^0 sifatida daraxtning ildizini belgilaylik. Har bir $x \in V_0$ uchun x^0 va x uchlarni tutashtiruvchi yagona yo'lni π_x ko'rinishda belgilaymiz. Shuningdek, agar qaralayotgan yo'l cheksiz bo'lsa, u holda $\pi = \left\{ x^0 = x_0 < x_1 < \ldots \right\}$ ko'rinishda yozamiz.

Agar $z^\pi = \left\{ z_x^\pi, x \in V^0 \right\}$, (8) ning π yo'lga mos yechimi bo'lsa, u holda z^π ni quyidagicha aniqlaymiz

$$z_x^\pi = \begin{cases} \alpha^* \lambda, \; agar \; x \prec x_{2n}, \; x \in W_{2n}, \\ \beta^* \lambda, \; agar \; x \prec x_{2n+1}, \; x \in W_{2n+1}, \\ \beta^* \lambda, \; agar \; x_{2n} \prec x, \; x \in W_{2n}, \\ \alpha^* \lambda, \; agar \; x_{2n+1} \prec x, \; x \in W_{2n+1}. \end{cases} \tag{10}$$

5-teorema. *Agar* $\Lambda_{cr} < \| \lambda \| < \dfrac{1}{\beta^* - \alpha^*}, \; \lambda \in \mathcal{T}^+$ *tengsizlik o'rinli bo'lsa, u holda ixtiyoriy* π *yo'l uchun, (9) va (10) ni qanoatlantiradigan yagona* $z^\pi = \left\{ z_x^\pi, x \in V^0 \right\}$ *yechim mavjud. Shuningdek, turli yo'llarga mos keluvchi (9) tenglamaning yechimlariga mos Gibbs o'lchovlari ham turli bo'ladi.*

Endi SOS modeli uchun gradiyent Gibbs o'lchovlariga oid asosiy natijani qisqa ko'rinishda keltirib o'tamiz.

SOS modelining Gamiltoniani quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$H(\omega) = -J \sum_{\langle x, y \rangle \in L} \left| \omega_x - \omega_y \right|, \quad \omega \in \Omega, \tag{11}$$

bu yerda $J \in \mathbb{R}_+$ o'zgarmas son.

HC modeli singari SOS modeli uchun chegaraviy qonun tenglamasi (tranlatsion-invariant yechim uchun, ya'ni barcha $b \in L$ uchun $l_b \equiv l$)

$$z_i = \left(\frac{\theta^{|i|} + \sum_{j \in \mathbb{Z}_0} \theta^{|i-j|} z_j}{1 + \sum_{j \in \mathbb{Z}_0} \theta^{|j|} z_j} \right)^k, \quad i \in \mathbb{Z}_0$$

ko'rinishda bo'ladi, bu yerda $\theta = \exp\{-\beta H\}$, $\beta = \dfrac{1}{T}$ teskari temperatura va $\mathbb{Z}_0 := \mathbb{Z} \setminus \{0\}$.

6-teorema. *Tartibi 3 ga teng bo‘lgan Keli daraxtida aniqlangan SOS modeli uchun* $\tau_{cr}^{(1)} \approx 3.13039, \tau_{cr}^{(2)} \approx 4.01009$ $(\tau = \theta^{-1} + \theta)$ *qiymatlarga mos ravishda quyidagi munosabatlar o‘rinli:*

(1) Agar $\tau \le \tau_{cr}^{(1)}$ *bo‘lsa, u holda berilgan chegaraviy qonunga mos keluvchi aynan bitta GGO‘ (gradiyent Gibbs o‘lchovi) mavjud..*

